



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI  
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR  
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Umirzakova Dilnoza Abdurashid qizi

*Bulung 'ur tuman 1-IDUM o'qituvchisi*

**TABIİY FANLAR ASOSIDA O'QUVCHILARINI BARKAMOL  
SHAXS SIFATIDA SHAKLLANTIRISH**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiiy fanlarda o'quvchilarning ilmiy-amaliy dunyoqarashini shakllantirish, o'quvchilarni tabiatga, ona Vatanga bo'lgan muhabbatini shakllantirishning usullari tahlil qilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiiy fan, foydali qazilma, kon, geologlar, ko'mir, qo'ng'ir ko'mir, toshko'mir, neft, tabiiy gaz, shaxta elektrostansiya, elektr toki.

Tabiiy fanlarni o'qitish o'quvchilarda atrofimizni o'rabi turgan tabiat, undagi havo, suv, foydali qazilmalar, o'simliklar, hayvonlar, ularning o'zaro bog'liqligi, tabiatini asrash, tabiatning oliv mavjudoti-odam tanasining tuzilishi va salomatligini saqlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda kengaytirish, o'lkamiz tabiatini bilan tanishtirish orqali ona Vatanimiz tabiatiga mehr uyg'otishdan iborat.

O'quvchilarning ilmiy-amaliy dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ular faqat dasturda ko'rsatilgan ob'yekt va voqelik bilangina emas, balki o'qituvchi bilan birgalikda jonli va jonsiz tabiatning sabab-oqibat aloqalari va munosabatlarini belgilaydi, tabiat hayotidagi ma'lum qonuniyatlarini ochishga harakat qiladi.

Tabiiy fanlarni o'rgatish jarayonida o'qituvchi quyidagi vazifalarga e'tibor berishi lozim;



- 1) jonli va jonsiz tabiat va maktab atrofidagi, viloyatdagi, o‘z yurtidagi kishilarning mehnati haqidagi tasavvur va tushunchalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- 2) tabiatdagi va kishilar mehnatidagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatish;
- 3) oddiy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish maqsadida jonli va jonsiz tabiatdagi voqelikni o‘quvchilar bilan doimiy kuzatib borish;
- 4) aniq misollar asosida ashyolar va tabiat hodisalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ochib berish, tabiatning odamlar mehnatiga ta’sirini ko‘rsatish;
- 5) tabiatni asrashning amaliyoti haqidagi bilimini asrash yuzasidan o‘tkazilayotgan tadbirlar bilan tanishtirish;
- 6) sanitariya-gigiyena haqidagi bilimlarni shakllantirishda davom etish, shaxsiy va jamoa gigiyenasi ko‘nikmalarini taraqqiy ettirish.

Ekologik ta’lim va tarbiya maqsadlaridan kelib chiqib, tabiatshunoslik fani o‘quvchilarni insonning tabiatga ta’sirini va tabiat boyliklarini o‘quvchilarga tushuntirish vazifasini o‘z oldimizga qo‘yamiz. Komil inson bo‘lishga yordam beradi. Shunday ekan o‘qituvchi har bir darsni zamonaviy yondashuvlar asosida olib bormog‘i lozim. Tabiiy fanlar mazmunida STEAM tatqiqotini o‘tkazish ham kiritilgan bo‘lib, bu amaliy tajribalar to‘plashda katta samara beradi. Bundan tashqari darslikdagi barcha mavzular o‘quvchilarda qiziqish va izlanish istagi namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarga hatto ro‘zg‘or buyumlarini yasashda ham foydali qazilmalardan foydalanish haqida ma’lumotni berib o‘tishimiz ularga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishiga yordam beradi. Masalan, mineral va tog‘ jinslarining asosiy qismi inson tomonidan foydalaniladi. Ularning foydali va foydasizlarga taqsimlanishi shartlidir. Bu ularning o‘zlariga emas, balki ularni qazib olish qanchalar daromadli ekanligiga bog‘liq. Ko‘p hollarda neft, gaz, ko‘mir, oltin, olmoslar, mis va nikl kabi minerallar foydali qazilmalar hisoblanadi.

Bizning hayotimizda foydali qazilmalar shunchalar chuqur o‘rnashib olganki, hatto ba’zi hollarda ularni sezmay ham qolamiz. Qoshiq, sanchiq va pichoqlar yasalishi uchun temir, aluminiy, xrom, nikl, molibden, mis va kumush rudalarini qazib olish kerakligini unutamiz. O‘quvchilarga ko‘mir ikki xil ekanligini toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mir. Tosh kabi qattiq bo‘lgan ko‘mir toshko‘mir, qo‘ng‘ir ko‘mir toshko‘mirga nisbatan yumshoqroq bo‘lib, oson maydalanilishini amalda ko‘rsatib isbotlab berish lozim. Ko‘mir koni yer yuzasiga yaqin joyda ham, juda chuqurda ham bo‘lishi mumkin. Yer yuzasiga yaqin joydagи ko‘mir turli texnika vositalari yordamida qazib olinadi. Yer ostidagi ko‘mirni qazib olish uchun chuqur shaxtalar qaziladi. Shaxtalarda ko‘plab odamlar ishlaydi. Ular texnika vositalari yordamida ko‘mirni qazib yuqoriga chiqaradilar. Ko‘mir yoqilganda undan katta miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Elektrostansiyalarda ko‘mir yoqilib, katta qozonlarda suv bug‘ga aylantiriladi. Bug‘ katta turbinlarni aylantirib, elektr tokini hosil qiladi. O‘zbekistonda elektr tokining katta qismi shu tarzda olinadi.

Tabiiy fanlardagi mavzularni o‘zlashtirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagi kompitensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Kommunikativ kompitensiya:



Muloqotga kirish uchun zarur bo‘ladigan og‘zaki nutqni o‘stirish, jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalariga oid tayanch so‘z va atamalarning ma`nosini aytib bera olishi lozim.

Axborot bilan ishslash kompetensiyasi:

Mavzuga doir ma’lumotlarni kompyuter va boshqa manbalardan izlab topib, ulardan samarali foydalana olish va amaliyotga tatbiq qilishdan iborat.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

Dunyoqarash va tafakkurini mustaqil ravishda o‘stirib borish, atrofidagi tabiat manzarasini estetik his etish, sportning yoshiga mos turi bilan shug‘ullanish, o‘zini tuta olish, to‘g‘ri so‘z bo‘lish, o‘zining xatosini tushunishib yetadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya:

Davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; farzandlik va o‘quvchilik burchini bilish, unga rioya qilish, tabiatni asrab -avaylash.

Milliy va umummadaniy kompetensiya :

O‘zi yashaydigan o‘lkaning tabiatni, tarixiy obidalari haqida bilish; uyi, maktabi, turar joyini qadrlash; do‘satlari, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘lish layoqatini shakllantirishib boradi.

Shunday ekan Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek ”Biz o‘zgarishni o‘zimizdan boshlamog‘imiz lozim” shiori ostida har kuni dars olib bormog‘miz kerak. „Yosh tabiatshunoslar”, „Tabiat qo‘riqchilar”, „Yosh geologlar”, „Yosh ekologlar” mavzusida tadbirlar o‘tkazish ham yaxshi natijalar beradi

Yuqoridaagi fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki o‘quvchilarning barkamol shaxs bo‘lib shakllantirishda tabiiy fanlarning roli beqiyosdir.

### Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Suyarov K. T., Tillayeva Z. Y., Sangirova Z. B. Tabiiy fan 1-sinf darslik  
Toshkent 2021

2. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. Samarqand 2003y.  
3 .Yer sayyorasi T.: 2016-y.